# Maktabdagi muhim muloqot

"Gidromelioratsiya" fakulteti “Gidrologiya va gidrogeologiya” kafedrasi professor-oʻqituvchilari D.V.Nazaraliev, S.E.Nurjanov, Sh.B.Akmalov, Q.Sh.Eshquvatov, S.R.Mansurov, I.M.Roʻziev, J.Hamraqulovlar Toshkent viloyati Oʻrtachirchiq tumani 56-maktabning 10-11 sinf oʻquvchilari bilan uchrashuv oʻtkazishdi. Uchrashuvda kafedradagi mavjud yoʻnalishlar boʻyicha maʼlumotlar berilib talabalikka qabul qilingan oʻquvchilarning imkoniyatlari toʻgʻrisida ham maʼlumot berildi.

Bunda institutning chet davlatlar bilan oʻzaro hamkorlik shartnomalari va memorandumlari mavjudligi yaxshi natijalarga erishgan talabalar shu davlatlarda oʻqishni davom ettirish, shu bilan birgalikda ikki tomonlama diplomlarga ega boʻlish imkoniyati mavjudligi toʻgʻrisida soʻz yuritildi. Shundan keyin oʻquvchilar bilan savol javob oʻtkazilib faol ishtirok etgan oʻquvchilar kafedra professor-oʻqituvchilari tomonidan esdalik sovgʻalari bilan taqdirlanishdi.

**TIQXMMI matbuot xizmati**